

JADIDLARI XOTIRASINI TIKLASH MAQSADIDA YURTIMIZDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHATLAR

Tursunboyeva Mubinabonu Xurshidbek qizi
Mamashokirova Barnoxon

*Andijon davlat pedagogika institute Filologiya fakulteti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi
1-bosqich talabasi*

Anotatsiya: *Ush bu maqolada mamlakatimiz ta'lim yo'nalishini yaxshilashga xalq tinchligini ta'minlash, ziyoli qatlanni shakllantirish maqsadida katta hissalarini qo'shgan jadidlarimiz xotirasini tiklash hamda ularga bo'lgan cheksiz hurmatimizni ifoladash maqsadida olib borilayotgan izchil islohatlar haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *siyosiy va madaniy taraqqiyot, ijtimoiy-falsafiy mazmun, mafkuraiyi qarashlar, jadid marifatparvarlar, Cho'lpon.*

XIX asrning oxiri XX asrning boshi jahon sivilizatsiyasining taraqqiyotida keskin burilishlar davri bo'ldi. Bu davrda chuqur islohotlar, birinchi va ikkinchi jahon urushi bo'lib, ilm-fan taraqqiyotida tub sifatiy o'zgarishlar ro'y berdi. Bir jamiyatning butunlay yod jamiyat ta'sirida qolishi nafaqat hayotda balki kishilarning falsafasida ham inqilob yasadi. XIX asrning oxiri va XX asrning boshida Markaziy Osiyoda ham boshqa mintaqalarda bo'lgani kabi o'zgacha fikrlovchi, yangicha qarash vakillari shakllanib bordi.

"XIX asr ijtimoiy-falsafiy, diniy-axloqiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotda so'nggi va keyingi yuz yillikning boshlanish davri bo'lib, g'oyaviy-nazariy va mafkuraiyi qarashlarning shakllanish xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Jadidlar harakati vujudga kelguniga qadar Turkistonda turli ma'naviy-g'oyaviy va mafkuraiyi oqimlar qadimchilar, islohotchilar, bedilchilar, mashrabxonlar, shuningdek, Markaziy Osiyo, umuman turkiy xalqlarga taalluqli bo'lgan tafakkurning turli shakllari, ijtimoiy-falsafiy mazmun va yo'nalishga ega bo'lgan ma'rifiy ta'limotlar va nazariyalar mayjud edi".

Jadidlarning asarlarida diniy-ma'rifiy g'oyalar, jumladan islom tarixini o'rganish masalasiga juda muhim jihat sifatida qaralgan. Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy o'tgan asrning boshidayoq "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimduur, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo'lur", degan haqqoniyl fikrlar bilan Turkiston ongu shu'urini uyg'otishga da'vat etgani bejiz emas, albatta . Jumladan, 1892-yili I.Gasprali Turkiston o'lkasida «usuli jadid» maktablarini ochishga izn va yordam so'rab general-gubernatorga yozgan xati javobsiz qoladi. 1901-yili Munavvar qori, 1904 yili Avloniyning yangi maktab ochish haqidagi arizalari rad etiladi. Jadid ma'rifatparvarlarining milliy o'zlikni anglash borasidagi muhim ishlardan biri yosh avlod ma'rifatida diniy ta'llimga alohida e'tibor qaratishi bilan belgilanadi. Avvalambor, diniy ruhda yosh avlodning xatsavodini chiqarish, diniy e'tiqodni mustahkamlash, din tarixini bilishga alohida diqqat qildilar. Birgina o'quvchilar uchun islom dini tarixini o'rgatishga mo'ljallangan bir qator darsliklar yaratildi. Munavvarqori Abdurashidxonovning "Havoju-diniya" Abdulla Avloniyning "Muxtasari tarixi anbiyo va tarixi islom", Abdurauf Fitratning "Muxtasari tarixi islom" kabi darsliklari shular

jumlasidandir. Tadqiqot mavzusining o'rganilganlik darajasi. Hozirgi kunda "Usuli jadid" maktablarida diniy fanlarning o'qitilishi, ularning o'ziga xos xususiyatlari maxsus tadqiqot ob'ekti bo'lган emas. XX asrning 80-yillari o'rtalaridan boshlangan demokratik oshkoraliq va qayta qurish jadidchilik harakati haqida cheklangan holda bo'lsa ham ayrim haqiqatlarni aytish imkonini berdi. Shu nuqtai nazardan, 1987 yilda O'zbekiston Milliy universiteti Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutida, 1989 yilda O'zFA va Yozuvchilar uyushmasi hamkorlikda Turkistonda jadidchilik harakatiga bag'ishlangan sobiq Ittifoq miqyosida ilmiy anjumanlar o'tkazildi. Ushbu yig'ilishlarda jadidchilik harakatini kompleks hamda ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'yicha o'rganish kerakligi ta'kidlandi. Vatanimiz mustaqillikka erishgandan keyingina ma'naviy-ma'rifiy hayotimizda jadidlarning o'rnini, xususan islom tarixini o'rganishda ularning qarashlarini xolisona yoritib berish imkoniyatiga ega bo'ldik. Jadidlarning ma'rifiy faoliyati, uning tub mohiyati, ularning asarlaridagi diniy g'oyalalar haqida keng ko'lamda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Turkistondagi jadidlarning diniy-ma'rifiy faoliyatini o'rganish bilan chet ellarda nisbatan oldinroq shug'ullana boshladilar. Bu sohada amerikalik E.Olvort, E.Lazzerini ishlari ma'lum. Ayniqsa, XX asrning 80- yillaridan keyin turkiyalik Nodir Davlat, Ahad Andijon, yaponiyalik Xisao Komatsu, nemis tadqiqotchisi Ingeborg Baldauf, amerikalik Adib Xolid kabi olimlarning asarlari e'tiborga loyiq, ularning ba'zi asarlari o'zbek tilida ham nashr etildi. Jadidchilikni o'rganishda B.Qosimov, S.Xolboev, Sh.Rizaev, B.Do'stqoraev kabilar o'rganib, shu to'g'risida ko'plab asarlar, maqolalar chop etishdi. Jumladan, Jadid ziyolilarining asarlari "Tanlangan asarlar" rukni ostida nashrdan chiqarildi. 1999-yilning 16-18 sentyabrida Toshkentda "XX asr boshida O'rta Osiyo: jadidchilik, muxtoriyatchilik, istiqlolchilik" mavzuida ancha e'tiborli xalqaro anjuman bo'lib o'tdi. Uning tashkilotchisi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasining tarix markazi turli mamlakatlardan kelgan yigirmadan ortiq mutaxassis olimlarning ma'ruzalari tinglandi. Ular orasida Ingeborg Baldauf, Adib Xolid, Fransiyalik Shantal Kelkeji, Italiyalik Marko Buttino, 6 niderlandiyalik Turaj Atabaki kabi taniqli olimlar bor edi. O'zbek olimlaridan professorlar N. Karimov, B. Qosimov, B. Nazarov, H. Ziyoev, dotsentlar Sh. Turdiev, B. Do'stqoraev, Sh.Rizaev N.Jabborov kabilar ma'ruzalari bilan ishtirok etdilar..

Mustaqillik yillarida milliy-ma'naviy tiklanish, milliy tarixni anglash, tarixiy adolatni tiklash borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek « Biz yaxshi bilamizki, hayot tinimsiz izlanish, tinimsiz kurashdir. Xalqimizning boshidan kechirgan behisob qiyinchiliklari, mardona mehnatining samarasini ko'rish, undan bahramand bo'lish vaqtin yetib kelmoqda». Ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy- ma'rifiy harakat bo'lmish jadidchilik ham sobiq tuzum tomonidan ta'qilangan hodisalardan edi. Bu boradagi keng ko'lamli yangilanishlar, ularning nomlari tiklanishi, asarlari o'rganilishi tom ma'noda mamlakatimiz tarixida muhim voqyea hisoblanadi. Ma'lumki, jadidlarning Turkiston ozodligi uchun kurash dasturida uch asosiy yo'nalish mavjud edi. Birinchisi - yangi usul mакtablari tarmog'ini kengaytirish, ikkinchisi - umidli yoshlarni chet ellarga o'qishga yuborish va niroyat, uchinchisi - turli ma'rifiy jamiyatlar tuzish hamda ziyolilarning kuchli firqasini tashkil etishga qaratilgan gazetalar chop etish edi. Mazkur harakat maqsadalariga ko'ra, Vatan, millat va davr oldida turgan ulkan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy muammolarni Turkiston xalqlarini ma'rifatli qilish, ular hayotini qaytadan madaniylashtirish va zamонавиylashtirish yo'li bilangina hal etish

mumkin edi. Bunday miqyosli va tarixiy vazifani tor doiralarga mansub yoki muayyan tabaqaviy qarashlarga asoslangan oqim hal qilolmasdi. Jadidchilik oqimining asoschisi, mashhur qrim-tatar allomasi Ismoilbek Gaspralining g'oyalari amalga oshishi natijasida XIX asrning oxirlarida Turkiston hayotida misli ko'rilmagan o'zgarishlar bo'ldi, hatto jahon tajribasida ko'rilmagan shiddatli ijtimoiy-ma'rifiy to'lqinni vujudga keltirdi, jadid allomalari Turkistonda milliy-mintaqaviy uyg'onish jarayonini boshlab berdilar, ular yaratgan ilmiy-pedagogik, falsafiyaxloqiy, badiiy-publistik asarlar, yangicha maktablar, yangi teatr, yangi o'quv qo'llanmalar haligacha xalqimiz orasida mashhur. Jumladan, jadidlar boshlab bergen yo'lni davom ettirish maqsadida esa yangidan yangi invistitsiyalar shu qatorda chet el o'quv tizimi ham olib kirilmoqda.

Ulug` bobolarimiz xotirasini tiklash maqsadida esa turli xil kitoblar hamda ularning hayot yo'llariga asoslangan teatrlar sahnalashtirilmoqda. Ular yozgan asarlari ko'pi bizgacha yetib kelmagan bo'lsada saqlanib qolning durdona asarlari matbuotda chop etilish bilan cheklanib qolmay, o'quv darsliklariga ham kiritilmoqda. Rus mustamlakasi davrida xalqni marifatga, ma'naviyatga yetaklashga harakat qilgan jadidlarimizning o'rni Rus sovet davrida qoralangan bo'lsada mustaqillik yillarda oqlanishi, ularga bo'lgan cheksiz hurmatimizning yaqqol namoyondasi hisoblanadi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Keldiyeva, S. (2024). TURKISTONDAGI JADID YANGI USUL MAKTABLARINING AHAMIYATI. Interpretation and researches, (4 (26)).
2. Shaxnozaxon, K. (2023). JADID MA'RIFATPARVARCHLIK NAMOYONDALARINING IJTIMOIY-SIYOSIY, FALASAFIY QARASHLARI. World scientific research journal, 15(1), 234-238.
3. Ahmedov, Sirojiddin; Rajabov, Qahramon (2000-2005). "Jadidchilik". O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
4. "Jadidizm". Ensiklopedik lug'at. 1. Toshkent: O'zbek sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyası. 1988. p. 271.
5. "Jadidizm". O'zbek sovet ensiklopediyasi. 4. Toshkent: O'zbek sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyası. 1973. 278-279 b.